

## MAGNOLIYA GRANDIFLORA L. NING FOYDALILIK XUSUSIYATLARI VA KO'KALAMZORLASHTIRISHDAGI O'RNI

**Ibragimov Hikmatillo Rahmatulla o'g'li**

*Termiz davlat universiteti magistranti Tel:(+998937923423)*

*Email- hikmatillohibrokhimov@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada Magnoliyaning foydalilik xususiyatlari va ko'kalamzorlashtirishdagi o'rni haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

**Kalit so'zlar:** *Magnolia, ko'kalamzorlashtirish, yashil makon loyihasi, zararli gazlar, manzarali daraxtlar.*

**Annotation:** *In this article, you will get information about the useful properties of magnolia and its role in landscaping.*

**Key words:** *Magnolia, landscaping, green space project, harmful gases, ornamental trees.*

### KIRISH

Barchamizga ma'lumki shaharlarda aholini yashash sharoitlarini komfort darajasiga ko'tarish, dam olishini ta'minlash, shahardagi sanitar holatni yaxshilash, mikroiklimni yuzaga keltirish va sog'lomlashtiruvchi yashil hududlar maydonlarini kengaytirishda manzarali yashil daraxtzorlarning roli baland. Shuningdek ko'kalamzorlashtirish uchun qo'llanilayotgan manzarali daraxt-buta turlari assortimentini boyitish ham muhim ahamiyatga ega. Ko'kalamzorlashtirish maqsadida tavsiya etilayotgan daraxt-buta turlari manzarali ko'rinishga ega bo'lishi bilan bir qatorda shaharning tutunli-gazli va changli muhitiga biologik chidamli bo'lishi va arxitekturaviy va sanitar-gigienik talablariga ham javob berishi lozim hisoblanadi. Bunday turdagi daraxt va butalar havodagi changlarni va avtomobillardan hamda sanoat korxonolardan chiqayotgan zaharli gazlarni atmosfera havosidan tozalashda katta ahamiyatga ega.

So'nngi yillarda yurtimizda ham shaharlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirishda, shaharlarda daraxtzorlarni ko'paytirib boorish orqali havo ifloslanishlarini kamaytirishga qaratilgan ishlar jadal davom etmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2021-yil 2-noyabrda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan ta'sirchan parlament va jamoatchilik nazoratini olib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Kengashi qaroriga asosan barcha hududlarda ko'kalamzorlashtirish maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda.[1]

Birgina "Yashil makon" yani shaharlarni ko'kalamzorlashtirishga qaratilgan ishlarining davlat siyosati darajasigacha ko'tarilishi bu sohaning naqadar muhim

ekanligini ko'rsatadi. Ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladigan bunda turdagi daraxtlardan biri bu Magnoliya (*Magnolia grandiflora*) hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Magnoliya (*Magnolia grandiflora*) Magnoliyadoshlar oilasiga kiruvchi doimiy yashil daraxt. Uning bo'yi 18-27 metrgacha yetishi mumkin. Barglari oddiy, uzunligi taxminan 13–20 sm (5–8 dyuym) va eni 5–8 sm (2–3 dyuym), keng tuxumsimon, butun chetlari silliq. Asosan iyundan-sentabrgacha gullaydi. Gullari yirik, 6–8 dyuym (15–20 sm) kengligida xushbo'y, bir uyli. Gullar bahor oxirida yetuk daraxtlardagi novdalar uchidan hosil bo'ladi. Hayot davomiyligi asosan 80-120 yilgacha. Uning bu nomi mashhur fransuz botanigi Per Magnol (1638-1715) sharafiga qoyilgan. Maxsus epitet lotin



tilidan olingan bo'lib, katta gullar degan ma'noni anglatadi. O'simlik katta xushbo'y oq gullar va doimiy yashil barglarga egaekanligi uni eng ajoyib o'rmon daraxtlaridan va ko'kalamzorlashtirishda eng yaxshi daraxtlardan biriga aylantiradi va butun dunyo bo'ylab ekilgan juda ajoyib daraxt sifatida bilishadi. Yog'och qattiq va og'ir bo'lib, qurilish materiallari sifatida ishlatishda ahamyati katta hisoblanadi, shuningdek tijorat maqsadlarida mebel, palletlar va shpon ishlab chiqarish uchun ham keng miqiyosida ishlatiladi.



1-rasm. Magnoliya guli.

2-

rasm. Magnoliya urug'i.

Magnoliya daraxtining ko'kalamzorlashtirishda foydalanish uchun tanlash mumkin bo'lgan eng yaxshi daraxtlardan xisoblanadi. Uning keng barglari chang va zaharli gazlarni tozalashda keng yuzaga ega. Shuningdek u doimiy yashil daraxt xisoblanib, haatto qish vaqtlarda bshqa ignabargli daraxtlar singari yashilligini

yoqotmaydi va shahar ko'rkiga ko'rk qo'shib turadi. Uning yirik xo'shbo'y oq rangli gullari esa bu manzaraga yanada ko'rkamlilik baxsh etadi.

Magnoliya nafaqat ko'kalamzorlashtirishda emas balki shifobaxshlik xususiyatlari bilan ham mashhurdir. An'anaviy Xitoy tibbiyoti uzoq vaqtdan beri magnoliyadan turli xil kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Tadqiqotchilar shuni takidlashadiki uning dorivorlik xususiyati tarkibida mavjud bo'lgan yuqori bioaktiv birikmalari bilan bog'liqdir. Quyida magnoliya gullari va qobig'ining sog'liq uchun eng muhim foydalarini ko'rib chiqamiz:

**Saratonga qarshi vosita.** Tadqiqotchi Lin S. va boshqa olimlarlar tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, magnoliya tarkibidagi magnolol saratonga qarshi eng yaxshi vositalardan biri bo'lib, u saraton hujayralarining ko'payishini cheklashda foydali bo'lishi mumkin.

**Qon bosimini meyorlashtirish.** Magnoliya tarkibidagi honokiol qon tomirlar deoiv tarangligini pasaytirib qon bosimini tushishiga yordam beradi. Bu ayniqsa qon bosimi yuqori bo'lgan insonlar uchun juda foydali bo'lishi mumkin.

**Antiallergin ta'siri.** Magnoliyadan tayorlangan ekstraktlari allergik reaksiyalarni oldini olish xususiyatiga ega. Agar siz mavsumiy allergiyalar va shunga o'xshash allerginlardan qutila olmayotgan bo'lsangiz bu siz uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

**Qandli diabetda foydalari.** Magnoliya tarkibidagi biofaol moddalar gipoglikemik tasirga ega. Bu degani qandli diabet bilan kasallangan bemorlar bundan foydalanish orqali yaxshi natijalarga erishishlari mumkin bo'ladi.

Magnolia grandiflora yuqoridagi foydalilik xususiyatlaridan tashqari yana bir qancha xususitlarga ega. Bularga diareya, qorin bo'shlig'i kasalliklari, revmatik artrit, yurak kasalliklari, yuqori qon bosimi, epilepsiya, bepustlik va isitmani davolash uchun an'anaviy tibbiyotda keng qo'llaniladi.

**Xulosa.** Insonning bu tabiatda yashab qolishida o'simliklarning roli juda katta. Ulardan odamzod qadim zamonlardan turli xil maqsadlarda, xususan qurilish materiallari, oziq-ovqat, zebu-ziynat va boshqa maqsadlarda keng foydalanib kelingan. O'simliklarning havo tarkibini tozalashda va shahar ko'kalamzorligini oshirishda ahamiyati katta. Xususan Magnoliya (Magnolia grandiflora) ko'kalamzorlashtirishda keng foydalanilmoqda. U o'zining chiroyli va ko'rkamligi bilan boshqa daraxtlardan ajralib turadi. Bundan tashqari u qadim zamonlardan buyon turli xil xalqlar tomonidan maxalliy tabobatda keng foydalanib kelingan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5776122>
2. Amerika o'simliklar milliy bazasi  
<https://plants.usda.gov/home/plantProfile?symbol=MAGR4>
3. Dunyo bo'ylab electron ensiklopediya  
[https://en.wikipedia.org/wiki/Magnolia\\_grandiflora](https://en.wikipedia.org/wiki/Magnolia_grandiflora)
4. <https://www.healthbenefitstimes.com/magnolia>